

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 257 (1318), 2024-yil 19-dekabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



FARMATSEVTIKA KLASTERI: ISHLAB CHIQRARISH VA ILM-FAN UYG‘UNLASHTIRILADI, MAHALLIYLASHTIRISH VA EKSPORT OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 18-dekabr kuni Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteriga tashrif buyurib, Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi va klasterdagi korxonalar faoliyati bilan tanishdi, sohadagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.



Davlatimiz rahbari dastlab “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasterini borib ko‘rdi. Mazkur majmua Prezidentimizning 2020-yil 28-yanvardagi qaroriga muvofiq tashkil etilgan, o‘sha yili 17-aprelda uning qurilishiga tamal toshi qo‘yilgandi. Birinchi bosqichda qariyb 20 gektar maydonda texnopark barpo etilmoqda. U

ma‘muriy markaz, tadqiqot va rivojlanish markazi (R&D), farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi laboratoriyasi, klinik tadqiqotlar markazi, Farmatsevtika texnik universiteti hamda vivariyini o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda ma‘muriy markaz qurib bitkazilgan. 11 qavatli ushbu binoda Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi, konferensiya zali, kovorking

markazi, biznes inkubator, kutubxona, soha tarixi muzei joylashgan. Davlatimiz rahbari ushbu markazni va navbatdagi inshootlar qurilishini ko‘zdan kechirdi. Klasterdan asosiy maqsad yuqori texnologiyalarni joriy etish orqali mamlakatimiz farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish, xalqaro innovatsion tizimga

integratsiyalashish, yuqori sifatli dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ishlab chiqarish, malakali mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu keng ko‘lamli maqsadlardan kelib chiqib, Toshkent viloyati Zangiota tumanidan 190 gektar yer maydoni ajratilgan.

Hozirgi kunda bu yerdagi sanoat zonasida umumiy qiymati 818 million dollarlik 21 ta loyiha joylashtirilgan. Ularning birinchisi — “Grand Pharm Logistics Hub” tomonidan 40 million dollarlik distribyutorlik markazi ishga tushirildi va 300 dan ortiq ish o‘rni yaratildi. Korxonalar Turkiya, Hindiston, Xitoy, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Prezidentimiz ushbu loyihalarni tashabbuskorlari bilan suhbatlashdi. Investitsiyalarni jalb etish va qo‘llab-quvvatlash izchil davom ettirilishini ta‘kidladi. Kelgusida sanoat zonasida yana 620 million dollarlik 20 ta loyiha amalga oshirilishi mo‘ljallangan.

Umuman, klasterda yuqori sifatli dori-darmonlar va tibbiy buyumlar ishlab chiqariladi, import bo‘layotgan mahsulotlar mahalliyashtiriladi, 8 ming ish o‘rni yaratiladi. Zarur amaliyotlar markazi (GxP) tovarlarning tayyorlanishidan iste‘molchiga yetib borishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda xalqaro standartlarga muvofiqlik va sifatini ta‘minlashga ko‘maklashadi.

Davlatimiz rahbariga shu yerda barpo etiladigan Farmatsevtika texnik universiteti haqida axborot berildi.

Unda farmakopeya markazi, kutubxona, sport majmuasi, o‘qituvchilar va chet ellik xodimlar uchun turar joy bo‘ladi. Sanoat

farmatsiyasi, biokimyoviy va biotibbiyot, biotexnologiya, biofarmatsevtika, bioinformatika kabi yo‘nalishlarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi. Buning uchun ta‘lim xalqaro dasturlar asosida yo‘lga qo‘yiladi, mikrobiologiya, biotexnologiya, hujayra biologiyasi, farmakologiya, tahliiliy kimyo kabi laboratoriyalar tashkil etiladi.

Universitetga joriy o‘quv yilida ilk talabalar qabul qilindi. Prezident ular bilan muloqotda bo‘ldi.

— Biz rivojlangan davlatlardan investorlar olib kelyapmiz. Ular O‘zbekistonga qanday qilib baho beradi? Sizlar bilan muloqot qilib. Mamlakatimizning boyligi — yoshlar! Farmatsevtika bo‘yicha ham eng yaxshi dasturlarni qo‘llab, kelajak uchun mutaxassislarni tayyorlab olmasak, boshqalarga pul to‘laymiz, bog‘liq bo‘lib qolamiz. Shuning uchun zamonaviy universitet tashkil qilib, dual ta‘limni yo‘lga qo‘yyapmiz. Bu yerda ham bilim olasizlar, ham o‘qiganlaringizni amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lasiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mazkur o‘quv yurti bitiruvchilariga Koreya Respublikasining Yonse, Buyuk Britaniyaning Sanderlend va De Monfor universitetlarining xalqaro miqyosda tan olinadigan diplomlari beriladi. Shuningdek, Dandi, Pusan va Perdu universitetlari bilan ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Tashkent Pharma Park” innovatsion klasterida farmatsevtika sohasidagi korxonalar rahbarlari bilan muloqot qildi.

Ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bu sohaga davlat tomonidan keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Oxirgi yetti yilda

farmatsevtikada ishlab chiqarish 2 karra oshgan. Eksport 11 barobar ko‘paygan. 750 million dollar investitsiya o‘zlashtirilib, korxonalar soni 3 barobar o‘sgan.

Yurtimizda 3,5 ming turdagi dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarilayapti. Lekin bu talabni to‘la qoplamaydi.

Shu bois, davlatimiz rahbari ko‘p turdagi dorilarni mahalliyashtirish va eksportni kengaytirish bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

“Asakabank” va Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligiga yirik mahalliy korxonalar bilan birga 2025-yilda keng iste‘mol qilinadigan 200 turdagi dori vositalarini o‘zlashtirish hamda ishlab chiqarishni 2 barobar oshirish bo‘yicha dastur tayyorlash topshirildi. Bunday loyihalarga xorijdan jalb qilingan 400 million dollar qulay shartlarda yo‘naltiriladi.

Endi farmatsevtika tarmog‘ida ilg‘or loyihalar investitsiya jamg‘armasi tashkil qilinadi. Bu jamg‘arma biofarmatsevtika, hujayra texnologiyalari, onkologiya kabi yo‘nalishlardagi loyihalarga ulush bilan kiradi, ularga katalizator bo‘ladi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan “Asakabank”ka sohani rivojlantirish uchun 100 million dollar kredit liniyasi ochilgan. Endi bu mablag‘ lizing uchun ham beriladi.

“Asakabank” tomonidan farmatsevtika sohasida yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish va startap loyihalarni moliyalashtirish uchun 10 million dollarlik venchur kompaniya ochiladi. Startap loyiha chetdan qancha mablag‘ jalb qilsa, mazkur kompaniya shuncha pulni qo‘shimcha ekspertizasi beradi.

Davomi 2-beta



Tahlil

MAHALLA BANKI RLARI INSTITUTI

aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni keskin kamaytirish, mavjud salohiyatni yuzaga chiqarishda muhim o‘rin egallaydi

Jahon iqtisodiyotidagi bugungi murakkab sharoit har bir davlat oldiga misli ko‘rilmagan sinov va imkoniyatlarni qo‘ymoqda. Pandemiya oqibatlari, geosiyosiy ziddiyatlar, global qiymat zanjirlaridagi uzilishlar hamda iqlim o‘zgarishlari iqtisodiy siyosat, bandlik, tadbirkorlik muhitini qayta ko‘rib, moslashuvchan va tezkor strategiyalar ishlab chiqish zaruratini tug‘dirdi.

Shu jarayonda O‘zbekiston ham iqtisodiyotni liberallashtirish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, kambag‘allikni kamaytirish hamda aholi farovonligini yuksaltirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni izchil davom ettirmoqda.

Shu yil 16-dekabr kuni davlatimiz rahbari raisligida o‘tgan videoselektor yig‘ilishida aynan shu masalalar — banklarning aholi bandligini ta‘minlash, daromadli qilish, kambag‘allikni kamaytirishga qo‘shadigan hisssasi, oilaviy va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, startaplarni, venchur kapital, infratuzilmaviy loyihalarni, yer resurslaridan samarali foydalanish, mikromoliya va faktoring sohalarni rivojlantirish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar belgilab berildi. Mazkur yig‘ilish iqtisodiyotning asosiy qon tomiri



Banklar va mahalla integratsiyasi: yangi bosqichga yo‘l

bo‘lgan moliya-bank tizimini mahalla darajasigacha tushirish, banklarni aholi hayotiga bevosita aralashadigan tuzilmaga aylantirish, ular orqali tadbirkorlikka ko‘maklashish, ish o‘rinlari yaratish, mehnat resurslarini iqtisodiy aylanishga jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish borasida muhim bosqichni boshlab bermoqda.

Bu jarayonlar O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab, 2025-yil va undan keyingi davrda aholi bandligini oshirish va kambag‘allikni keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

Davomi 3-beta

“YASHIL” IQTISODIYOT – noldan yaratilayotgan kelajak quvvati

Nuqtayi nazar

Joriy yilning 13-dekabr kuni Prezidentimiz ishtirokida energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag‘ishlangan marosim bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbir O‘zbekistonning energetika sohasidagi mustaqilligini mustahkamlash va energetika tizimini diversifikatsiyalash yo‘lidagi strategik ahamiyatga ega zalvorli odimdir. Bu iqtisodiyotimizning barqaror rivoji, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy infratuzilmalar uchun energiya ta‘minoti uzluksizligini ta‘minlash bilan birga investitsiya jozibadorligini oshirish hamda yangi ish o‘rinlari yaratishda juda muhimdir. Ya‘ni mazkur loyihalar hayotiy zaruratning amaliy natijasi bo‘ldi.

Zarurat nimada?

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga zaruratning bir necha muhim sababi mavjud. Avvalo, ular iste‘molchilarni barqaror va uzluksiz energiya bilan ta‘minlash barobarida ta‘minotni barqarorlashtirish, narxlarini pasaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Ko‘mir, neft va tabiiy gazga bog‘liqlik ko‘p mamlakatlar

uchun energiya xavfsizligi muammosiga aylanib bormoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish esa energiya mustaqilligini ta‘minlash va importga ehtiyojni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, atmosferaga zararli gazlar chiqishini qisqartirishi bilan ham ahamiyatlidir.

Davomi 4-beta



QUYOSH, SHAMOL va SUV

Ekologik toza energiya manbalaridan oqilona foydalanaylik

2030-yilga borib “yashil” elektr stansiyalari quvvatini oshirish orqali O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 40 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu asnoda atmosferaga 21 million tonna zararli gaz chiqarilishining oldi olinadi. Shuningdek, bu amaliyot natijasida yurtimizdagi 9 mingdan ortiq mahallada yashovchi 3,5 milliondan ziyod xonadonning elektr ta‘minoti yaxshilanadi.

Davomi 4-beta



FARMATSEVIKA KLASTERI: ISHLAB CHIQRARISH VA ILM-FAN UYG'UNLASHTIRILADI, MAHALLIYLASHTIRISH VA EKSPORT OSHIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Yangi ishlanmalar uchun Innovatsiya jamg'armasidan 20 milliard so'm grant ajratiladi. Bu olimlar yaratayotgan yangi mahalliy dori ishlanmalarini tijorat loyihasiga aylantirish va startaplar uchun yo'naltiriladi.

Mahalliy farmatsevtika korxonalariga 2025-yil 1-yanvargacha berilgan bojxona imtiyozlari muddati yana 3 yilga uzaytiriladi.

Mamlakatimiz korxonalarini yetakchi xorijiy farmatsevtika kompaniyalari texnologiyasi va retsepti asosida dorilar chiqarishga tayyor. Lekin bunday kooperatsiya uchun huquqiy asos yaratilmagan sababli har bir dori yangi mahsulot kabi klinik tadqiqot va ro'yxatdan o'tkazishga to'g'ri kelyapti. Bunga ko'p vaqt ketadi. Shu bois bu tartibni soddalashtirish muhimligi aytiladi.

Tadbirkorlarning eksport bozorlarini kengaytirish uchun AQSHning Oziq-ovqat va dori vositalari sifati nazorati boshqarmasi (FDA) hamda Yevropa tibbiyot agentligi sertifikatlarini olish xarajatlari byudjetdan qoplab beriladi.

Yurtimizda o'simliklarni sanoat usulida yetishtirib, qayta ishlash orqali substansiya va kosmetik komponent olish rivojlanayapti. Shunga muvofiq, "Asakabank" ishtirokida kelgusi yilda har biri 5 gektardan bo'lgan dorivor o'simliklar plantatsiyasi barpo etilib, ularni qayta ishlash bo'yicha 5 ta namunaviy loyiha bajariladi.

Umuman, farmatsevtikada 1 milliard dollarlik loyihalar shakllantirilishi belgilandi. Ular talab yuqori dori vositalarini chet elnikidek sifatda ishlab chiqarib, bozorda raqobat yaratib, narxlarini arzonlashtirishga qaratilgan.

Muloqotda soha vakillari ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulot sifati va eksportini oshirish, ilm va ta'limni rag'batlantirish bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev "Grand Pharm Logistics Hub" faoliyati bilan tanishdi.

Ushbu logistika markazi "Tashkent Pharma Park" innovatsion klasteri hududida o'n gektar maydonda joylashgan. Loyihaning umumiy qiymati 40 million dollar bo'lib, uch qavatli ma'muriy bino, omborlar, mehmonxona, oshxona va yotoqxonaga qurilgan. 300 dan ortiq ish o'rni yaratilgan.

Mahsulotlarni saqlash joyi 50 ming kvadrat metr. Bu yerda katta hajmdagi farmatsevtika mahsulotlarini xalqaro standartlar asosida qabul qilish, saqlash va tarqatish imkoniyati mavjud. Bu bosqichlar to'liq raqamlashtirilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu jarayonlarni ko'zdan kechirdi.

Logistika markazi "Tashkent Pharma Park" farmatsevtika klasteridagi boshqa ishlab chiqaruvchilarga ham qo'l keladi. Mahsulotlarni saqlash va eksport qilishlarida xalqaro "SAP" tizimi orqali amaliy yordam

beriladi. Buning uchun dori vositalari sifatini ta'minlash bo'yicha "GDP" va "GSP" sertifikatlarini hamda bojxona ombori, xalqaro yuklarni tashish uchun litsenziyalar mavjud.

Bu boradagi talablarni ta'minlash uchun xalqaro standartlarga muvofiq havoni sovutish tizimlari o'rnatilgan. Yuklarni o'rinish paytida ham harorat mo'tadilligi ta'minlanadi. Yigirmadan ortiq yuk mashinalarida tashish xizmatlari ham ko'rsatiladi. Majmuada bunday transportlar uchun turargoh va texnik xizmat ham tashkil etilgan.

Bugungi kunda Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Germaniya, Polsha, Fransiya, Vengriya, Ruminiya va Turkiya kabi davlatlar bilan logistik aloqalar o'rnatilgan. Bu geografiya yildan-yilga kengayib bormoqda.

Mutasaddirlarga mahsulotlarni saqlash va rasmiylashtirishda qulayliklarni oshirish, tannarxni kamaytirib, dorilarni arzonlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Kompaniya farmatsevtika bozorini muntazam o'rganib, tibbiyot sohasidagi ehtiyojlarni ham tahlil qilib boradi. Natijada yetkazib berish yo'nalishi ko'lami kengayib bormoqda. Ushbu korxonaga mamlakatimiz hududi bo'yilab 7 ming 500 dan ortiq dorixonaga tovarlar yetkazib beradi. Shuningdek, onlayn dorixonaga xizmat yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu boradagi hamkorlar soni ham ortmoqda.

Bu yerda "GPH Academy" loyihasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, qator oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilinmoqda. Uchta ta'lim dargohida amaliy mashg'ulot xonalari tashkil etildi. Uch ming nafar farmatsevtika malaka oshirish kurslaridan o'tdi. O'ttiz nafarga yaqin talaba ushbu loyihaning stipendiya va grantlariga ega bo'ldi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari

Logistika markazi "Tashkent Pharma Park" farmatsevtika klasteridagi boshqa ishlab chiqaruvchilarga ham qo'l keladi. Mahsulotlarni saqlash va eksport qilishlarida xalqaro "SAP" tizimi orqali amaliy yordam beriladi. Buning uchun dori vositalari sifatini ta'minlash bo'yicha "GDP" va "GSP" sertifikatlarini hamda bojxona ombori, xalqaro yuklarni tashish uchun litsenziyalar mavjud.



Prezident tashrifidan so'ng

ko'tarinki ruhda, iliqlik bilan kutib olindi. Ayniqsa, hududda ekologiyaga alohida e'tibor berish, yashillikni ko'paytirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalar aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tumanda barpo etilayotgan "Ugam River" turistik majmuasi ham hududda sayyohlar oqimini yanada oshirish, yangi ish o'rnlari yaratishga turki beradi. Ilgari Ugam daryosi bo'yidagi bu maskan to'la foydalanilmagan, toshloq joy bo'lgan. Bu yil qiymati 1 trillion so'mdan ziyod loyiha doirasida qariyb 14 gektar maydonda qurilish boshlandi. Hozir 870 xonadondan iborat 17 ta ko'p qavatli uy qad ko'tarmoqda. Bu esa aholini sifati uy-joy bilan ta'minlash, ko'plab insonlarning maqsadlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

qilish uchun, avvalo, yaxshi sharoit bo'lishi kerak. Sababi, sayyohlar ko'proq chiroyli tabiatga, toza havoga intiladi. Bu borada mavjud daraxtzonga qo'shimcha 20 ming tup ko'chat o'tqazilib, zamonaviy texnologiyalar vositasida kuniga ming kub metr daryo suvi qayta ishlangan holda 2 megavattlik termal isitish va sovutish tizimi yo'lga qo'yilishi ayni muddaodir. Bu, o'z navbatida, tumanning turizm salohiyatini yanada oshirishga hissa qo'shadi.

Kichik GESlarning katta imkoniyatlari

Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanib, aholi turmush darajasi yaxshilangan sari, tabiiyki, energiyaga ham talab

Xususan, keyingi yillarda yurtimizda energiya quvvatlarini oshirishda barcha manbalardan foydalanilmoqda. Ayniqsa, hududlarda kunlik energiya ta'minotida gidroenergetika qulay va samaralidir. Zero, ular umumiy tarmoqqa ulanmasdan har bir hudud va mahalla kesimida elektr bilan ta'minlan oladi. Asosiysi, olinadigan elektr tannarxi ham boshqa manbalarga nisbatan ancha arzonidir.

Mamlakatimizda ushbu sohani yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, so'nggi yillarda 630 million dollar investitsiya hisobidan 400 megavatt dan ortiq yangi gidroelektr stansiyalar barpo etildi. Asosiysi, ularning quvvati 2,2 gigavattga yetkazilgan e'tiborga molik.

Bugungi kunda viloyatda umumiy quvvati 1330 megavatt bo'lgan 25 ta gidroelektr stansiya mavjud, bu respublikamizdagi jami gidroenergetika quvvatining 60 foiziga teng, degani. Ayni chog'da qiymati 880 million dollar va quvvati 340 megavatt bo'lgan yana 4 ta GES qurilmoqda. 2028-yilgacha esa viloyatda umumiy quvvati qariyb 2400 megavatt bo'lgan, 4 milliard 800 million dollarlik 23 ta loyiha amalga oshiriladi. Bu orqali yil sayin soni tobora o'sib borayotgan aholi va tadbirkorlik subyektlarini elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlash imkonini paydo bo'ladi.

yetib boramiz. Transport qulayliklari mamlakat rivojini ko'rsatuvchi va buni ta'minlovchi omillardan biri. Oxirgi yillarda yurtimizda soha infratuzilmasi yangilanib, sharoitlar kengaytirilayotgani o'z natijasini berayotir.

Shuningdek, temir yo'l transportida yo'lovchi tashish sohasini yanada rivojlantirish, ushbu sohada davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslarini yaratish, investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish hamda yo'lovchilarga yuqori darajada xizmat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, davlatimiz rahbarining o'tgan yil 10-oktabrdagi tegishli qaroriga muvofiq, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ transformatsiya qilinmoqda. Jamiyat tarkibida infratuzilma, vagon xizmati, yo'lovchi tashish kabilar bilan shug'ullanuvchi 6 ta mustaqil korxonaga ish boshlandi.

E'tiborli jihati, poyezdlar parki ham kengaytirilib, yo'lovchi tashishda aholi va sayyohlarga qulayliklar oshirilmoqda. Buning uchun yangi poyezdlar ham olib kelingan. O'tgan davrda yurtimizda 3 ming kilometrdan ziyod temir yo'llar elektrlashtirildi. Birgina Toshkent atrofiga ham elektrlashgan yo'l qurilib, poyezdlarni o'tkazish imkoniyati 30 foiz oshdi. Endi Toshkent — Xo'jakent yo'nalishida yangi elektropoyezd qatnovi yo'lga qo'yildi.

Vagonlarning shinam va yorug', yo'lovchilar uchun qulayligi aholini xursand qilmoqda. Ma'lumot tablolari va yong'in xavfsizligi tizimi o'rnatilgan, poyezd soatiga 120 kilometrgacha tezlikka chiqa olishi, har bir tarafiga kuniga uchtdan qatnov yo'lga qo'yilishi viloyatdagi poytaxtga qatnab o'quvchi va ishlovchi ko'plab fuqarolarimizning ko'nglidagi ish bo'ldi.

Keyingi yillarda yurtimizning barcha go'shalari kabi Toshkent viloyatida ham katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Avvalo, aholining turmush tarzini yaxshilash, iqtisodiyotni rivojlantirish, odamlarga yaxshi hayot, qulay sharoit yaratish bo'yicha ulkan ishlar qilinadi. Ko'plab yangi turar joylar, ijtimoiy soha obyektlari barpo etildi.

Zuhra MIRG'OZIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

O'zgarishlar, bunyodkorlik shukhi, ma'naviy-madaniy ishlar samarasi odamlar hayotiga ham yangicha mazmun kiritdi. O'tgan qisqa davrda bir necha yillar davomida xalqimizni o'yaltirib kelayotgan ko'plab masalalar ijobiy hal etildi. Nafaqat viloyat markazi, balki eng olis qishloqlar ham mutlaqo zamonaviy qiyofa kasb etdi.

Bugun viloyatning qay bir tumaniga bormang, katta-katta o'zgarishlar, aholining hayotdan rozi bo'lib yashayotganiga guvoh bo'lasiz. Yo'l, ichimlik suvi, elektr energiyasi bilan bog'liq masalalar yechilgan, yangi ta'lim va tibbiyot muassasalari qurilgan, eng muhimi, odamlar ongi va dunyoqarashidagi o'zgarishlar shundan darak beradi.

Ilgari viloyat poytaxtga yaqin joylashgan bo'lsa-da, lekin bunday sharoitlar bo'lmagan, aholi uchun qulayliklar yaratishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Hozir amalga oshirilayotgan yangi loyihalarni ko'rib, mana, ko'p yillar davomida qilinmagan ishlarni qisqa muddatda qilsa bo'larkan-ku, deysiz.

Ayni chog'da viloyatda sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar, turizm, umuman, barcha sohalar juda katta imkoniyatlar bor. So'nggi yetti yilda hudud iqtisodiyoti 1,5 barobar o'sgan. Sanoat korxonalarini 2 barobar ko'paytib, 12 mingtaga yetgan. Natijada o'n minglab yangi ish o'rnlari yaratildi, ko'plab yoshlar doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi.

Viloyatning birgina Bo'stonliq tumanida oxirgi yillarda bo'layotgan yangilanishlarni tasavvurga sig'dirish qiyin. Zero, bugun tumanda infratuzilma tubdan yaxshilanib, aholiga yilning barcha faslida maroqli hordiq chiqarish uchun zarur qulaylik, imkoniyatlar yaratildi. Dam olish, sog'lomlashtirish, chang'i, sayohat, umumiy ovqatlanish majmualari nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijlik sayyohlarning ham qiziqishini oshirmoqda.

E'tibor bering, keyingi yillarda birgina sayyohlar uchun dam olish joylari qurilishiga 2 trillion so'mdan ziyod investitsiya yo'naltirilib, 13 mingdan ko'p o'ringa ega 59 ta yirik turizm inshooti ishga tushirildi. Vaholanki, bundan besh yil avval tumanda bor-yo'g'i 2240 o'rinni 26 ta maskan bor edi, xolos. Asosiy avtomobil yo'li ta'mirlanishi va qo'shimcha yo'llar qurilishi hisobiga ham sayyohlar soni yildan yilga oshib borayotir.

Ayni paytda Toshkent viloyatida ekoturizm, agroturizm, sport turizmi kabi yo'nalishlar jadal rivojlanmoqda. Hududning noyob tabiiy resurslarga egaligi, flora-fauna olami boyligi ekoturizm rivoji uchun bemisli imkoniyatlar taqdim qiladi.



Toshkent va Xo'jakent oralig'idagi temir yo'lga tutash maydonlarni 2025-yilgi renovatsiya dasturiga kiritib, ularni tartibga keltirishga ko'rsatma berildi. Yo'nalishdagi egri qismlarni to'g'ri qilib qayta qurish orqali kunlik ekspress poyezdlar qatnovini ko'paytirish va ko'proq yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish uchun sharoit yaratish topshirildi.

Ushbu hududda 16 ta kottej, 3 ta restoran, yigirmadan ortiq savdo va xizmat shoxobchasi quriladi. Xullas, odamlar bir paytlar orzu qilgan bolalar o'yingohlari, yopiq suv havzasi, fitness va sport maydonchalari, amfiteatr, avtoturargoh, avtomobil ko'pri, tog' va sohil bo'yi yo'laklari ham tashkil etiladi. Bularning barchasi inson qadriini ulug'lash, aholining turmush farovonligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Albatta, so'nggi yillarda viloyatda turizm sohasini rivojlantirishga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki sayyohlar oqimini yanada oshirish, ularni oharabodek jalb

oshib boraveradi. Shu ma'noda, mamlakatimizda energiya ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, elektr tarmoqlarini modernizatsiyalash, xalqimizni bu muhim manba bilan uzluksiz ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Binobarin, iqtisodiy rivojlanishga yuz tutgan har bir davlat ishonchli va barqaror elektr energiyasi ta'minotini yo'lga qo'yishga birinchi galdagi vazifa sifatida qaramoqda. Respublikamizda ham energetika sohasini isloh qilish, energiya bozorini liberalashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari joriy etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Masalan, quvvati 1,48 megavatt bo'lgan Ugam-1 kichik GESni qurish orqali yiliga 11,8 million kilovatt-soat elektr toza elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini yaratildi. Zamonaviy samarador gidroagregatlar va avtomatik boshqaruv tizimi o'rnatildi. Bunda to'liq yurtimiz mahsulotlari ishlatilgan diqqatga sazovor.

Ushbu loyihani amalga oshirish natijasida hududdagi Chorbog', Xumson va Ugam mahallalaridagi 5 mingta xonadon hamda turizm va dam olish maskanlari uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlanadi. Muhimi, yiliga qariyb 4 million kub metr gaz tejalandi. Hozircha Ugam daryosida ikkita kichik GES qurildi. Ularning har biridan yiliga ikki yuz milliard so'm daromad olinayapti.

Davlatimiz rahbari Ugam-1 kichik gidroelektr stansiyasini ko'zdan kechirish chog'ida suv oqimidan takror-takror foydalanish orqali bunday stansiyalarni o'ntagacha yetkazish imkonligini ko'rsatib o'tdi. Bu bilan nafaqat energetika masalasi hal bo'ladi, balki hudud infratuzilmasi ham yaxshilanadi. Tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi korxonalarini paydo bo'ladi.

Ayonki, qayerda energetika ta'minoti muammolar, sababasi uzilishlarda xoli bo'lsa, ana shu yerda ijtimoiy infratuzilma ham, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi korxonalarini ham rivojlantiradi.

Xonadonlarga quvunch va shodlik kirdi

Yo'llar ravon va tekis bo'lsa, ko'zlangan manzilga bexavotir, ko'ngil xotirjam holda





yuz_official

yuz.uz_news

yuz

Tahlil



MAHALLA BANKI RLARI INSTITUTI

aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni keskin kamaytirish, mavjud salohiyatni yuzaga chiqarishda muhim o'rin egallaydi



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
qo'mita raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Namangan viloyati Uychi tumanida erishilgan natijalar bu yondashuvning samaradorligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Mazkur tumanida banklar 3200 nafar faol mijoz bilan ishlagan, ularga mablag', konsalting, huquqiy va tashkiliy yordam ko'rsatgan. Natijada 9 ming odam doimiy ishli bo'lib, kambag'allar soni 6 mingga kamaydi. Bu raqamlar bankning odatiy tijorat muassasasi bo'lishi bilan birga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish katalizatoriga aylanganidan ko'rsatadi.

Xuddi shunday jarayon Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanida ham kuzatildi. Tumanidagi 3200 ta xonadonda loyihalar ishga tushirilib, 12 ming odam o'z tomorqasidan daromad olishni o'rgandi. Ya'ni bank faqat kredit ajratish bilgina cheklanmay, tadbirkorlarga bilim, tajriba, bozor konyunkturasi, mahsulotni sotish strategiyasi kabi murakkab jarayonlarda ham ko'makchi bo'lmoqda. Bank mutaxassislari, mahalla faollari va hokimliklar hamkorligida ish olib borish orqali norasmiy sektordagi aholini rasman band etish, ularning daromadini barqarorlashtirish kabi natijalarga erishilmoqda.

Yana bir misol: Jizzax viloyati Zarbdor tumanida 13,5 ming, Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida 28 ming ish o'rini yaratildi. Natijada qo'shimcha 10 mingdan ziyod aholi kambag'allikdan chiqdi. Bularning bari banklar, mahallalar, hokimlik va tadbirkorlarning integratsiyasi bilan yuzaga kelgan ijobiy o'zgarishlardir.

Umuman olganda, O'zbekistonda yil boshidan buyon ana shu tajribalar doirasida 3 million 300 ming aholi doimiy daromadga ega bo'ldi. Rasman band bo'lganlar soni ilk bor 10,5 million nafarga yetdi. Bunday natijalar iqtisodiy islohotlarning ijobiy samarasini ko'rsatib, aholi farovonligiga bevosita ta'sir qilmoqda.

Yana bir e'tiborli fakt: Xo'jayli, Asaka, Vokbent, Bulung'ur, Yangiyer, Qo'shtepa, Shovot kabi 57 ta tumanida ishsizlik 5 foizdan pasaydi. Bu raqamlar banklarning faqat savdo-sotiq, kreditlash bilan shug'ullanadigan muassasa emas, balki hududlarda iqtisodiy faollarni targ'ib etish, kasb-hunar o'rgatish, startap loyihalari qo'llash, mikromoliya mexanizmlari orqali eng kichik loyihalarni ham moliyalashtirishdek multifunksional rolga ega ekanini ko'rsatadi.

Erishilayotgan yutuqlar banklar bu ijobiy tajribalarni kengaytirishi va aholiga yanada yaqin bo'lishi zarurligini ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari "2025-yil bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo'ladi", deya qayd etishidan maqsad endi banklar, mahalla, hokimliklar va tadbirkorlar hamkorligidagi bu modelni butun respublika miqyosida joriy etishdir.

Oilaviy tadbirkorlik dasturi: yangi bosqichga o'tish va kreditlar samaradorligi

Keyingi 6 yil davomida oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 750 ming aholi kreditini vaqtida qaytarib, daromadli biznes egasiga aylandi. Shulardan 58 ming nafari yangi korxonalar ochishga muvaffaq bo'ldi. Bu dastur oilalarga tadbirkorlikni boshlash, kichik loyiha bilan bozor iqtisodiyoti muhitida o'z o'rnini topish, barqaror daromad manbai yaratish imkoniyatini berdi.

Endi banklar ushbu dastur orqali "sinalgan mijozlar"ni qo'llab-quvvatlab, kichik va o'rta biznes darajasiga olib chiqishi kerak. Bu yerda bank faqat kredit beruvchi emas, balki hamkor, maslahatchi, biznes trener sifatida maydonga chiqishi kutilmoqda. Mijoz bilan doimiy aloqada bo'lib, uni yirik bozorga yo'naltirish, mahsulot sifatini yaxshilash, eksport imkoniyatlarini izlash, innovatsion yechimlarni taklif etish banklar oldida turgan ustuvor vazifalardan bo'ladi.

Buning uchun "Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash" dasturi doirasida shartsiz 300 million so'm kredit berish mexanizmi joriy qilinadi. Ushbu choralar natijasida kelgusi yillarda 1,5 million aholi ishli bo'lishi rejalashtirilmoqda. Demak, banklar moliyaviy resurs taqsimlovchisidan ixcham iqtisodiy rivojlanish drayveriga aylandi.

Ilgari banklar oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha mablag'ni faqat davlatdan olgan. Ammo endi Xalq banki tashabbus bilan chiqib, Osiyo taraqqiyot banki bilan "moliyaviy ommaboplik" dasturi doirasida 50 million so'mgacha ortiqcha hujjat va garovsiz kredit bermoqda. Bu nimani anglatadi?

Avvalo, bu banklarning tashqi moliya manbalarini izlash, xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik qilish, sarmoya jalb etish va risklarni boshqarish qobiliyati rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ikkinchidan, ortiqcha hujjat talab etmasdan kredit berish bank va mijoz o'rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlaydi. Mahalla, bank, tadbirkor va aholi o'rtasidagi ishonch ildlizlari chuqurlashtirish bilan qarzlarning qaytarilish darajasi ham ortadi, barqaror biznes ekotizimi shakllanadi.

Kelgusi yil 9 ta davlat banki 1 milliard dollar kredit berib, 250 ming odamni daromadli qilish imkoniyatiga egaligi aytiladi. Bu nafaqat mablag' ajratish, balki inson kapitaliga, biznes layoqatiga sarmoya kiritish, mexanizm va jarayonlarni soddalashtirish orqali iqtisodiy siklni faollashtirishga yo'naltiriladi.

Faol tadbirkorlar ishtirokida barqaror rivojlanish modeli

Faol tadbirkorlar ishtirokida 27 ta tumanida ochilgan ko-operatsiyalar samarali natija berayotganining guvohi bo'lyapmiz. Kelasi yilda yana 30 ta tumanida baliqchilik, quyonchilik, chorvachilik va asalarichilik bo'yicha shunday kooperatsiyalar tashkil etiladi. Bunga 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Kooperatsiyalar xo'jalik yuritishning taraqqiy etgan shakli bo'lib, kichik ishlab chiqaruvchilarni birlashtirish, ularning resurslari, texnologiyalari, bilim va tajribalarini qo'shib, larger scale (yirik hajmdagi) ishlab chiqarish klasterlari yaratishga xizmat qiladi. Banklar bu yerda ham asosiy tayanch tuzilma sifatida maydonga chiqadi — kooperatsiya a'zolariga moliyaviy ko'mak, zarur infratuzilmaga investitsiya, zarur hollarda kredit, lizing va faktoring xizmatlari taqdim etadi. Natijada ham investitsiya, ham ish o'rini yaratuvchi, ham eksportbov mahsulot ishlab chiqaruvchi ekotizim paydo bo'ladi.

Startaplar iqtisodiyotga yangilik kirituvchi, malakali yoshlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etuvchi, investitsiya jalb qiluvchi noyob subyektlardir. Davlat banklari venchur kompaniya tuzib, mahalla startaplariga 50 million dollar ajratishi, har bir bankning xususiy shirik topib, startaplarni biznesga aylantiradigan akseleratorlar ochishi nazarda tutilmoqda.

Venchur kapital riskni bo'lishish, yuqori texnologik yoki innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish uchun moliyaviy poydevor yaratadigan mexanizmdir. O'zbekiston sharoitida bu yangi hodisa, endi banklar faqat an'anaviy tijorat funksiyasi emas, balki innovatsiyalarni boshqarish, inkubatsiya qilish va rivojlantirish sari qadam tashlamoqda. Natijada mahalladan boshlab butun iqtisodiyot miqyosida innovatsion ekotizim paydo bo'ladi.

150 mingta ish o'rini uchun zaxira yaratiladi

Ko'rib chiqilgan yana bir dolzarb masala — og'ir tumanlarda ishsizlikni kamaytirish. Ular iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi, infratuzilma kamchiligi, malakali tadbirkorlar yetishmasligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun bunday hududlarda boshqa joylardan tajribali tadbirkorlar jalb qilinib, loyihalarni uchun



imtiyozli kreditlar, qo'shimcha infratuzilma mablag'lari ajratilishi rejalashtirilmoqda. Bu chora 1 million 300 ming aholining daromadli bo'lishiga zamin yaratadi.

Bu yondashuv hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, hududiy disbalanslarni yumshatish va yanada muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Banklar bu jarayonda tajribali tadbirkorlar va hokimliklar o'rtasida ko'priklarni, moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida qatnashadi.

Davlat infratuzilma qilib beradigan bo'lsa, tadbirkorlar qo'shimcha 31 trillion so'mlik 3,5 mingta loyiha va 200 mingta yangi ish o'rini

va eksport hajmini kengaytirish imkonini paydo bo'ladi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, 60 ta ilg'or shahar-tuman ishsizlik va kambag'allikdan xoli bo'lish imkoniyatiga ega. Buning uchun kelgusi yilda ular 2 million aholini band qilish, 417 mingta oilani kambag'allikdan chiqarishi zarur. Demak, aynan shu hududlar bo'yicha aniq target (maqsad) ko'rsatkichlari belgilangan.

Bu jarayonda banklar, mahalla, hokimliklar, tadbirkorlar, xalqaro moliya institutlari hamkorlikda aniq hududiy strategiya va mexanizmlar ishlab chiqildi. Kreditlar maqsadli ajratiladi, loyihalar monitoring qilinadi,

orqali qisqartirib, ularga tezroq mablag'ni qaytarish bilan likvidlikni yaxshilaydi.

Endi davlat banklari ham o'zining mikromoliya va faktoring kompaniyasini ochishi, unga xorijiy investorlarni jalb qilishi mumkin. Bu instrumentlar boshqa davlatlarda samaradorligini ko'rsatgan, O'zbekistonda ham ularning keng foydalanish bank xizmatlari doirasini kengaytiradi, aholi va tadbirkorlar uchun qulay moliyaviy xizmatlar ekotizimini shakllantiradi.

Yig'ilishda banklar oldidagi muammolar tilga olindi. Masalan, banklar balansida 3 mingta harakatsiz mulk bor. Ular sotilsa, qo'shimcha resurs va 150 mingta ish o'rini uchun zaxira paydo bo'ladi. Shu bois, banklarga harakatsiz mulklarni bozor qiymatida to'g'ridan-to'g'ri sotishga ruxsat berish belgilandi.

Shuningdek, kredit qarzi hisobidan garovni sud orqali undirish juda ko'p vaqt o'layotgani aytiladi. Bu borada qonunchilikni o'zgartirish, garovga nisbatan bank huquqlari ustuvorligini hamda undiruvga qaratilgan mulklar tezroq sotilishini nazarda tutish zarur. Ushbu chora banklarning risklarni boshqarish qobiliyatini oshirib, iqtisodiy aylanish tezligini kuchaytiradi.

Hokimliklar bilan banklarning mahallalarda muvofiq ishlash tizimi ko'rsatib o'tildi. Tumanida loyihani joy va infratuzilma bilan ta'minlash hokim zimmasida, banklar esa tadbirkorlar loyihalariga ko'maklashadi, muammo bo'lsa, hal etadi, ishsizlarni biznesga jalb qiladi. Bu funksional taqsimot har bir ishtirokchiga aniq vazifa yuklaydi, mas'uliyatni oshiradi va jarayon samaradorligini ta'minlaydi.

Hududiy biznes imkoniyati kengayadi

Yig'ilishda mahalla banklari faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi bildirildi. Ular mahallaning biznes imkoniyatlarini o'rganadi, odamlarning g'oyalari va qobiliyatini loyihalarga aylantiradi. Aholiga moliyaviy tartiblarni, mahsulot va xizmatlarini sotishni o'rgatadi, loyihalarga hamroh bo'ladi.

Mahalla banklari instituti bu — hududlarga eng yaqin moliyaviy targ'ibotchilar demakdir. Ular aslida bank va mahalla o'rtasidagi "simyog'och" bo'lib, mahalliy resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va aholi ehtiyojlarini bank xizmatlariga bog'laydi. Natijada banklar nafaqat markazda, balki har bir hududda, har bir mahallada, hatto har bir xonadonda iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini yaratib boshlaydi.

Ushbu chora-tadbirlar jahon iqtisodiyotidagi murakkab sharoitlarda O'zbekistonning moslashuvchan, tekzur va chuqur islohotlarga tayyor ekanini ko'rsatadi. Moliyaviy intizom va shaxsiy mas'uliyatni kuchaytirish, bank tizimini mustahkamlash, o'z navbatida, ishsizlik va kambag'allikni keskin kamaytirish, aholi daromadlarini barqaror oshirish, ichki bozorni mustahkamlash, eksport salohiyatini kengaytirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Qayd etilganidek, 2025-yilda 5 milliondan ziyod aholini daromadli va 1,5 million odamni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha hisobotlar qilish, maqsadli ish olib borish zarur. Bunda har bir hudud rahbari, bank rahbari, mahalla faoli, tadbirkor aniq indikatorlarga erishishi lozim bo'ladi.

Har bir viloyat, tuman yoki shahar o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatga ega. Banklar va hokimliklar ushbu salohiyatni yuzaga chiqarish, tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirish, innovatsion yechimlar, startaplar, venchur kapital, faktoring, mikromoliya kabi ilg'or moliyaviy instrumentlarni har bir hudud sharoitiga moslashtirish orqali rivojlanishni jadallashtiradi.

Ijobiy tajriba sifatida Namangan, Sirdaryo, Jizzax, Buxoro viloyatlari misolida ko'rganimizday, ayrim tumanida bir necha oy ichida minglab ish o'rini, minglab daromad manbalari yaratilishi mumkin bo'lmagan hodisa emas. Agar bank, mahalla, hokimlik, tadbirkor hamijhat bo'lsa, real ijobiy natijalarga erishiladi. Zero, Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G'ijduvon tajribalari buni tasdiqlaydi. Axiq bu o'zgarishlar ko'zimiz oldida sodir bo'lmoqda.

Yuqorida bayon qilingan barcha chora-tadbirlar, ko'rsatkichlar, reja va mexanizmlar O'zbekiston iqtisodiy siyosatining murakkab, ammo istiqbolli yo'lini ko'rsatadi. Banklar endi oddiy tijorat muassasasi bo'lishdan tashqari, iqtisodiy taraqqiyot, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish, kichik biznesni rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, venchur kapital jalb qilish, klasterlash, kooperatsiya va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy ustunlaridan biriga aylanmoqda.

Shu bilan birga, banklar moliyaviy mustahkam bo'lishi, faqat davlat mablag'iga tayanmasdan, chetdan 6 milliard dollar jalb qilishi, aholi omonatlarini 11 milliard dollarga yetkazishi bu — yaqin istiqbolda qilinadigan ishlar. Bu bilan banklar iqtisodiyotga zarur likvidlikni ta'minlaydi, tadbirkorlarni uzluksiz moliyaviy manbalar bilan qo'llab-quvvatlaydi.

Huquqiy bazani takomillashtirish, garovga olingan mulklarni tezroq sotish, harakatsiz mulklarni iqtisodiy aylanishga qaytarish, eng chekka hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy erkinlik va raqobatni mustahkamlash — hammasi jamlam bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'taradi.

Kelgusida mahalla banklari instituti aynan shu aloqani mustahkamlab, hududlarning boy salohiyatini yuzaga chiqaradi. Aholi o'z tomorqalarida, o'z uyida, o'z qishlog'ida yoki o'z mahallasida tadbirkorlikni boshlaydi, banklar esa qulay shart-sharoit, mablag', maslahat, bozor tahlillari va innovatsion yechimlar bilan shug'ullanadi. Natijada iqtisodiyot turli manbalardan quvvat olib, barqaror va inkluziv o'sishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda moliya-bank tizimi oldida turgan aniq va ulkan vazifalar belgilab olindi. Banklar mahallaga kiradi, aholini daromadli qiladi, startaplar, klasterlar, kooperatsiyalar, mikromoliya, faktoring, venchur kapital, innovatsion dasturlar orqali iqtisodiyotda tub burilish yashashga intiladi. Bu chora-tadbirlar orqali 2025-yilga kelib, aholi bandligini keskin oshirish, kambag'allikni sezilarli kamaytirish, hududlar o'rtasidagi farqlarni yumshatish, investitsiyalar oqimini ko'paytirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish, oxir-oqibatda xalq farovonligini muttasil yuksaltirishga erishiladi.

Shunday qilib, bank sektori endilikda nafaqat kredit beruvchi, balki ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar lokomotiviga aylandi. Ushbu rol banklar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi, ammo ayni paytda O'zbekiston iqtisodiyotini zamonaviy, diversifikatsiyalashgan, innovatsion va inkluziv yo'l bilan taraqqiyot sari olib chiqishga umid beradi.

Nuqtayi nazar

“YASHIL” IQTISODIYOT

noldan yaratilayotgan kelajak quvvati



Ikromjon RAHMONOV, texnika fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Tahlillarga ko'ra, jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi natijasida 2030-yilga kelib elektr energiyasiga talab asr boshidagiga nisbatan 50 foiz oshadi. Bu, o'z navbatida, global energiya iste'moli hajmini 23,27 milliard tonna shartli yoqilg'iga yetkazadi. Mutaxassislar bu masalaning yechimi sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni hamda ekologik toza va yuqori samaradorlikka ega yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonini jadallashtirishni tavsiya etadi. Bu yondashuv nafaqat energiya resurslariga talabni qondirish, balki iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda ham muhim ahamiyatga ega. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining keng qo'llanilishi global miqyosda energiyani barqaror va ekologik xavfsiz ta'minotini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, O'zbekiston Parij bitimi doirasida 2030-yilgacha zararli gazlar emissiyasini 35 foiz kamaytirishni maqsad qilgan bo'lib, elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish mazkur maqsadli ko'rsatkichning bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish salohiyati juda katta va energetika sohasini modernizatsiya

qilish uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Geografik joylashuv va tabiiy resurslar qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ayniqsa, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish uchun juda qulay. O'zbekistonda yilning 300 kunidan ortig'i quyoshli ekani uning energiyasidan samarali foydalanish uchun juda yaxshi shart-sharoit yaratadi.

Shamol energiyasidan foydalanish uchun ham katta imkoniyatlar bor. Buxoro, Navoiy va Qoraqalpog'istonda shamol energiyasini ishlab chiqarish uchun juda qulay hududlar mavjud.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yillik potentsiali sezilarli darajada yuqori. Jumladan, quyosh energiyasining umumiy quvvati yiliga 525 dan 760 milliard kilovatt-soatgacha baholalanmoqda. Shamol energiyasining quvvati esa 1 trillion kilovatt-soatgacha yetishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar shamol energiyasini mamlakatdagi eng yirik qayta tiklanuvchi energiya manbai sifatida ajratib ko'rsatadi va energetika salohiyatini yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

2025-yilga qadar O'zbekistonda umumiy quvvati 1,7 gigavatt bo'lgan shamol elektr stansiyalarini qurish rejalashtirilgan bo'lib, bu mamlakatning energiya ta'minotini barqarorlashtirishga qaratilgan muhim qadamdir. Shuningdek, 2023-yilda mamlakatda quyosh energiyasining ishlab chiqarish quvvati

2025-yilga qadar 3,4 ming megavatt quvvatga ega 18 ta quyosh va shamol stansiyasini, shuningdek, 1,8 ming megavattli energiya saqlash tizimlarini ishga tushirish rejalashtirilgan. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi natijasida “yashil” energiya ishlab chiqarish hajmi 12 milliard kilovatt-soatga yetishi kutilmoqda.

2,7 gigavattni tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga kelib, 10 gigavattga yetkazish maqsad qilingan. Bundan tashqari, 2025-yilgacha 3,4 ming megavatt quvvatga ega 18 ta quyosh elektr stansiyasi ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda. Bu loyihalar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish orqali energetik va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talab tobora ortib bormoqda

Energiya resurslariga talab aholi soni oshishi va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi bilan bevosita bog'liq jarayondir. O'zbekistonda aholi soni 37,5 millionga yetgani va iqtisodiyotdagi jadal o'sish energiya iste'molining barcha sohalarda, jumladan, sanoat, transport, uy-joy kommunal xo'jaligi va

xizmat ko'rsatish sohalarida sezilarli darajada ko'payishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, yangi ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilishi va yuqori texnologiyalar joriy qilinishi ham energiyaga talabni yanada oshirmoqda. Bu holat qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha choralar ko'rinishi talab qiladi.

Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi iste'molida sanoatning ulushi 40 foizga yetgan bo'lib, ko'rsatkich yildan yilga ortib boryapti. Bu esa sanoat tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi elektr ta'minoti tizimlarini yaratish bilan birga, texnologik jarayonlarda energiya resurslaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Mutaxassislar tomonidan 2030-yilga borib, mamlakatimizning elektr energiyasiga talabi 120 milliard kilovatt-soatga yetishi prognoz qilingan. Shu bilan birga, o'tgan yili yurtingimiz yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollarlik tarixiy marrani zabt etgan bo'lsa, 2030-yilga borib, bu ko'rsatkichni 200 milliard dollarga yetkazish ko'zlangan. Bunga erishish uchun energiya ta'minoti barqarorligi, energiya manbalari

diversifikatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim.

So'nggi yillarda bu borada qator amaliy ishlar qilindi. Jumladan, “yashil” energetika sohasida 3,5 ming megavattli yoki 10 milliard kilovatt-soatga teng 16 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi. Buning natijasida joriy yilda tarmoqda “yashil” energiya ulushi 16 foizdan oshdi.

Mazkur yo'nalishdagi ishlarimiz uzviylikni ta'minlash, sifati va samaradorligini oshirish maqsadida marosimda umumiy qiymati 7 milliard dollardan ziyod 24 ta loyihani ishga tushirish va qurilish ishlarini boshlashga start berildi. Jumladan, Buxoro, Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida qariyb 2,3 ming megavatt quvvatga ega 5 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi hamda 5 ta yuqori kuchlanishli podstansiya qurib bitkazilgan. O'zbekistonda ilk bor Andijon va Farg'onada 300 megavattli energiya saqlash tizimi barpo etilgan. Qashqadaryoda 400 megavattli elektr stansiyasi, Toshkent shahrida zamonaviy kogeneratsiya qurilmasi, Andijon, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 4 ta kichik GES shay holatga keltirilgan. Shuningdek, Farg'ona, Samarqand, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida 2,5 ming megavattli 6 ta elektr inshooti qurilish arafasida. Yangi loyihalar orqali kelgusi yillarda qo'shimcha 9,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi, 2,5 milliard kub metr tabiiy gaz tejaliishi va 4,6 million tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinishi kutilmoqda.

Bu loyihalar O'zbekistonga nima beradi?

Birinchidan, yangi loyihalar energiya ta'minoti mustaqilligini ta'minlashda qo'llaydigan. Elektr energiyasi ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash va energiya manbalarini samarali boshqarish imkonini yaratadi. Bu O'zbekistonning tashqi energiya manbalariga bog'liqligini kamaytirishga, ichki manbalardan foydalanishni oshirishga yordam beradi. Mavjud energetika infratuzilmasiga yangi quvvatni qo'shish orqali mamlakat energiya ta'minotini barqarorlashtirib, uzluksizligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, yangi loyihalar elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va saqlash jarayonlarini yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Bu, ayniqsa, sanoat va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun muhimdir. Quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalaridan foydalanish orqali ta'minot barqarorlashtirib, ishlab chiqarish jarayoni samaradorligi oshadi. Zamonaviy kogeneratsiya qurilmalari, o'z navbatida, energiyani maqsadli ishlatilishini ta'minlab, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va zamonaviy texnologiyalar ishga tushirilishi atrof-muhitga ta'siri kamaytirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, uglerod chiqindilarini kamaytirish va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. 2,5 milliard kub metr tabiiy gaz tejaliishi va 4,6 million tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinishi O'zbekistonning ekologik maqsadlariga erishishda muhim qadam hisoblanadi. Bu mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi sa'y-harakatlarini ifodalab, global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda o'z hissasini qo'shadi.

To'rtinchidan, quyosh va shamol stansiyalari, kichik gidroelektr stansiyalar va energiya saqlash tizimlari ish o'rnlari ko'paytirishga yordam beradi. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, yangi texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalar kiritishga yo'l ochadi. Umumiy iqtisodiy o'sishni ta'minlab, energetika sohasidagi mutaxassislar va muhandislar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Beshinchidan, energiya ta'minoti uzluksizligini ta'minlash darajasini oshirib, talab o'sishi bilan bog'liq muammolar yechimiga yordam beradi.

Oltinchi, energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va ichki resurslardan oqilona foydalanish orqali mamlakatimizning energetika salohiyati yuksaladi. Bu, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Marosimda ta'kidlanidek, 2025-yilga qadar 3,4 ming megavatt quvvatga ega 18 ta quyosh va shamol stansiyasini, shuningdek, 1,8 ming megavattli energiya saqlash tizimlarini ishga tushirish rejalashtirilgan. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi natijasida “yashil” energiya ishlab chiqarish hajmi 12 milliard kilovatt-soatga yetishi kutilmoqda.

2030-yilga qadar O'zbekistonda 19 ming megavatt quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini barpo etish va ularning ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bunday innovatsion loyihalar O'zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o'tishini tezlashtiradi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish energiya resurslariga tobeklikni kamaytirish, tabiiy gaz va boshqa an'anaviy yoqilg'ilar iste'molini, shuningdek, zararli gazlar emissiyasini sezilarli darajada qisqartiradi. O'zbekistonning jahon energetika bozorida raqobatbardoshligini oshiradi, barqaror rivojlanish yo'lidagi asosiy strategik maqsadlarimizga erishishga zamin yaratadi. Mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

QUYOSH, SHAMOL VA SUV

Ekologik toza energiya manbalaridan oqilona foydalanaylik

Shuhrat NORMURODOV, jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Karmana va Nurobod tumanlarida ishga tushirilgan har birining quvvati 100 megavattli quyosh fotoelektr stansiyalari energetika tizimida nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo mintaqasida birinchi ulkan qadam bo'ldi.

Samarqand viloyatida energiya resurslariga tushayotgan bosimni yengillatish, qulay choralar ko'rish uchun ko'pgina muassasalar muqobil energiya resurslariga o'tmoqda. Jumladan, 2024-yilning shu davriga qadar viloyatdagi 1013 ta ijtimoiy obyekt va davlat idorasi “yashil” energiyaga o'tkazildi. Qurilish sohasida qoidalar o'zgarimoqda va sohaga energiya resurslarini tejovchi texnologiyalar jadal kirib kelmoqda. Bunday binolarni qurishda qish davrida issiqlik energiyasidan kamroq foydalanib, uyda issiqlikni ko'proq saqlash imkonini beradigan, yozda esa salqinlikni ta'minlaydigan energiya tejamon qurilish materiallari va texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Bu sa'y-harakatlarga hamohang yurtimizda elektr bilan harakatlanuvchi transportlar tobora ommalashmoqda. Ularning yurish xarajati oddiy avtomobilnikiga nisbatan 10 barobar, tabiatga zarari esa 3 barobar kam. Shu bois,

hozir Samarqand shahrida 36 ta elektrobus yo'nalishlarga chiqarilgan.

Odamlar bir daqiqada 5-6 litr havo olib, chiqaradi. Bu jarayon orqali biz kislorodni qabul qilamiz va karbonat angidridni chiqaramiz. Bir kishining kislorodga bir kunlik ehtiyojini qoplash uchun 22 ta daraxt kerak. Sanoat inqilobi tufayli insoniyat tabiatga muttasil daxl qilishi va daraxtlar kesilishi natijasida biz qisqa yoki uzoq muddatli xavf-xatarga duchor bo'lishimiz, hech ish qilmasak, sayyoramiz “o'pka”siz qolib ketishi mumkin ekan.

Shunday holatlarda jonimizga ora kiradigan — daraxtlar. Ularning har biri yiliga deyarli 22 kilogramm karbonat angidrid yutadi va yil davomida 120 kilogramm kislorod ajratadi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bundan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi chinakam xalq harakatiga aylandi. Ekologik vaziyatni yaxshilashda noyob yechim sifatida xalqaro hamjamiyat e'tirofiga sazovor bo'layotgan ushbu tashabbus natijasida oxirgi 3 yilda mamlakatimiz bo'yicha jami 646 million tup ko'chat va buta ekilgan. Orolbo'yidagi yashil qoplamay maydoni esa 2 million gektardan oshgan.

— Prezidentimizning 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilishi yangi O'zbekistonda ona tabiatini asrab-avaylash, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilayotgan yuksak e'tiboring

amaldagi yana bir ifodasi bo'ldi, — deydi tajribali o'rmonchi Orziqul Majidov. — “Yashil makon” umummilliy loyihasi esa xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri — bo'sh yerga ko'chat ekish, bog'-rog' barpo etish an'anisini tikladi. Har yili 200 million tup daraxt va buta ko'chati ekilib, katta-katta bog'lar barpo etilmoqda. Salkam 40 yillik o'rmonchi sifatida ushbu sa'y-harakatlardan ko'nglim tog'dek ko'tarildi.

Yurtimiz tuprog'i shunday mo'jizakor: yerga bir cho'p suqilsa, barg yozib, novda chiqaradi. Bundan zavqlangan har bir kishining bog' yaratgisi keladi. Bu borada Samarqand viloyatida joriy yilda 11 million 609 ming tup daraxt va buta ko'chati ekildi. Jumladan, 7,2 gektarda “yashil bog'lar” hamda 3,2 gektarda

“yashil belbog'lar”, shuningdek, 10,5 gektar yerdagi “hokimlik bog'lari” barpo etildi.

Daraxt ekilganidan keyin o'z-o'zidan ko'karib qolmaydi. Ko'chatlarni parvarish qilish va sug'orish maqsadida 60 kilometrli sug'orish tarmog'i tuzilib, 36 ta yer osti suv qudug'i ishga tushirildi. Bundan tashqari, suv yetib borishi qiyin bo'lgan manzillarga sug'orish uchun mo'ljallangan 40 ta maxsus texnika jalb etildi.

Ekologlar yaqin 50-yilda sayyoramizda millonlab yillar davomida shakllangan biologik xilma-xillik qariyb 50 foiz kamayishi va bu ayanchli oqibatlarga olib kelishi haqida bejiz ogohlantirmayapti. Buni sayyoramizda inson tomonidan hosil qilingan chiqindi miqdori tabiiy paydo bo'ladigan miqdorga nisbatan 2



“Daraxt ekilganidan keyin o'z-o'zidan ko'karib qolmaydi. Ko'chatlarni parvarish qilish va sug'orish maqsadida 60 kilometrli sug'orish tarmog'i tuzilib, 36 ta yer osti suv qudug'i ishga tushirildi. Bundan tashqari, suv yetib borishi qiyin bo'lgan manzillarga sug'orish uchun mo'ljallangan 40 ta maxsus texnika jalb etildi.”

ming barobar ko'pligi, haydaladigan yerning 40 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish uchun yaroqsiz holga keltirilganidan ham anglash mumkin. Bu esa bizni ekologik muammolar borasida yanada hushyor bo'lishga undaydi. Demak, “yashil” taraqqiyot uchun kurashar ekanmiz, chiqindi muammosi bilan ham yuzlanamiz.

Konstitutsiyamizda fuqarolarning tabiatga ehtiyoqkorona munosabatda bo'lishga majburligi belgilab qo'yilgan. Biroq ayrimlar ushbu burchini unutib qo'ymoqda. Samarqand viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi taqdim qilgan ma'lumotga ko'ra, nazorat tadbirlarida chiqindilar bilan bog'liq talablarga rioya etmaslik bo'yicha 1783 shaxsga nisbatan 1 milliard 47 million 645 ming so'm ma'muriy jarima qo'llangan. Ushbu yo'nalishda birgina avtomobilda chiqindilarni belgilanmagan joyga tashlash bo'yicha Samarqand shahri va tumanida o'rtalig' kam 2000 so'm jarima qo'llanilgan.

joriy yilning o'tgan davrida 248 holat qayd etilgan.

— Chiqindi muammosini faqat jarima bilan bartaraf qilish mushkul, — deydi ekolog Narzulla Quvondiqov. — Qayta ishlabni yo'lga qo'yish va boshqa tashabbuslar bilan rag'batlantirib borish zarur. Qolaversa, chiqindi poligonlarini qayta qurish, tarmoq korxonalarini maxsus texnika va uskunalar bilan jihozlash zarur.

Go'zal tabiatni asrash, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish va kelajak avlodga busbutun yetkazishga har birimiz mas'ulim. “Yashil” iqtisodiyot faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas. Uning tarkibida yashil hududlarni kengaytirish, cho'lanishni qisqartirish, ichimlik suv ta'minoti, chiqindilarni oqilona boshqarish, ozuq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi qator masalalar bor. Bularning barchasi yonma-yon yechimini topishi kerak. Bugun oddiy tuyulayotgan harakatlardan, loyihalar kelgusida katta o'zgarishlarda namoyon bo'lad.



MA'RIFATLI AVLOD – UCHINCHI RENESSANSNI

UYG'OTUVCHI YANGI KUCH

So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Ta'lim sohasiga Prezidentimizning "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir", deya yuksak baho berishi mazkur yo'nalishdagi ishlovlarning ahamiyati va dolzarbligini ko'rsatadi.



Abdug'afvor QIRG'IZBOYEV, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori

Bugungi kunda yurtimizda transformatsiyalashuv sharoitida oliy ta'lim sifatini boshqarish va ta'minlash borasida qator ishlar qilinadi. Endi oliy ta'lim muassasalarida oldida xalqaro standartlar, norma va shakllar asosida ta'lim sifatini ta'minlash, oliygo'hlarni faoliyatini "Universitet 4.0" konsepsiyasi asosida transformatsiya qilish, ularning xalqaro reytinglardagi o'rnini yuksaltirish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlari ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish borasida farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Bundan tashqari, ta'lim, ilm-fan va amaliyot uy'uliginiga ta'minlashga shahida e'tibor qaratilmoqda.

Universitetni xalqaro talablarga muvofiq transformatsiya qilish belgilangan

Prezidentimizning 2022-yil 21-iyundagi "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham ayni maqsadlarda qabul qilingan bo'lib, unda 2022-2026-yillarda universitetni xalqaro talablarga muvofiq transformatsiya qilish belgilangan, kompleks rivojlantirish dasturi va maqsadli ko'rsatkichlar tasdiqlangan. 2023-yil 1-yanvardan boshlab universitetga akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berildi. Ta'lim sifatini oshirish, oliygo'hlarning faoliyatiga ilg'or ta'lim dasturlarini joriy qilish hamda zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish, universitetni xalqaro talablarga muvofiq transformatsiya qilish maqsadida mutaxassislik kafedralariga dars mashg'ulotlari o'tkazish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb qilish belgilangan. Shuningdek, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalarini

reytingida ilk 1000 talikka kirgan xorijiy OTMlar bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish, universitetning Times Higher Education yoki Quacquarelli Symonds xalqaro reyting agentliklarining sohasiy, mintaqaviy yoxud tematik reytinglariga kirishini ta'minlash, vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini bosqichma-bosqich akkreditatsiyadan o'tkazish, boshqaruv tizimini ISO:21001 (Educational organizations – Management systems for educational organizations) talablari asosida tashkil etish vazifalari qo'yilgan edi.

Universitet jamoasi ushbu vazifalar mas'uliyatini chuqur his qilgan holda qator yutuqlarga erishib kelmoqda. Jumladan, pedagogika sohasi uchun yetakchi oliy ta'lim muassasasi sifatida joriy o'quv yilida oliy ta'limning yangilangan klassifikatori pedagogika sohasi bo'yicha 13 ta bakalavriat yo'nalishi, 17 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bunda 186 ta fan bo'yicha o'quv dasturlari xalqaro reytinglarning TOP 300 talik ro'yxatiga kirgan OTMlar, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab, o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari dasturlari asosida takomillashtirildi. O'quv rejalarida talabalarning metodik tayyorgarligi bo'yicha ajratilgan fanlar ulushi kamida 50 foizga yetkazildi.

Dunyoning yetakchi xorijiy oliygo'hlardan 66 nafar xorijiy professor-o'qituvchi dars mashg'ulotlarini o'tish uchun jalb qilindi. Shuningdek, Prezident maktablarida faoliyat yuritayotgan xorijiy mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qilinib, ularning tajribasidan ta'lim jarayonida keng foydalanib kelinmoqda. Toshkent shahridagi Prezident maktabida faoliyat yuritayotgan xorijiy mutaxassislar Michelle Gaddy va Abdul Hameed universitetning kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasiga, Little Rozlyn esa ingliz tili nazariyasi va uni o'qitish metodikasi kafedrasiga o'rindoshlik asosida ishga qabul qilinib, dars o'tish bilan birga ta'lim dasturlarini Prezident maktablari dasturlari asosida takomillashtirishda ko'maklashib kelmoqda.

Xalqaro reytinglarga kirish va mustahkam o'rin egallash yo'lida

Izchil sa'y-harakatlar natijasida keyingi yillarda universitetni xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytinglariga kiritish borasida ham qator muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Universitet Times Higher Education (THE) xalqaro reytinglarining universitetlarning jahon taraqqiyotiga ta'siri (Impact ranking-2024) bo'yicha jahon reytingida 1001+ o'rin; Times Higher Education (THE) xalqaro reytinglarining jahon universitetlari reytingida (World University Rankings-2024) repertyor maqomi; Sifatli ta'lim (Quality Education) jahon reytingida 801-1000 o'rin; Gender tenglik (Gender Equality) jahon reytingida 601-800 o'rin; Munosib ish o'rinlari va iqtisodiy o'sish (Decent Work and Economic Growth) jahon reytingida 601-800 o'rin; Barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik (Partnership for the goals) jahon reytingida esa 1001+ o'rin egalladi.

Shuningdek, oliy ta'lim sohasidagi global tahlil agentligining 2024-yil 6-noyabrda Osiyoning eng yaxshi universitetlari reytingi o'n oltinchi yillik nashri – QS Asia University Rankings-2025 e'lonida TOP 1000 talikdagi o'rinni mustahkamlab, 678-o'rinda joylashdi.

Osiyoning 2025-yilgi eng yaxshi universitetlari reytingi qit'aning 25 mamlakati va hududidan 985 ta oliy ta'lim muassasasini

Ta'lim taraqqiyoti



qamrab olgan bo'lib, ulardan 127 tasi ilk bor reytingga kiritilgan. Mazkur reyting natijalariga ko'ra, O'zbekiston Osiyoning o'z mavqeini eng ishonchli tarzda yaxshilagan davlatlardan biriga aylandi. Unga yuritimizdan 2023-yilda 7 ta, 2024-yilda 14 ta oliy ta'lim muassasasi kirgan. Universitet ketma-ket 3 yil mazkur reytingda qayd qilinib, mavqeyini tobora oshirib bormoqda. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridan 11 tasi o'z o'rnini yaxshilagan, 2 tasi o'rnini saqlab qolgan, 9 tasi birinchi marta reytingga kiritilgan, bittasi esa o'rnini boy bergan.

Universitet transformatsiyasining tayanch nuqtasi

Universitet transformatsiyasida katta o'rin tutadigan muhim jihatlardan yana biri ta'lim dasturlarining xalqaro akkreditatsiyadan o'tganligidir.

Pirovard maqsadimiz, biz tayyorlagan kadrlar zamonaviy o'qituvchilarga qo'yilgan talablarga javob berishi, xalqaro maydonida o'z o'rniga ega bo'lishi, ichki va tashqi mehnat bozorlarida raqobatbardosh, dunyoqarashi keng, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi zarur. Buning uchun universitetda mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ta'lim dasturlarini yetakchi xorijiy oliygo'hlarni kabi xalqaro talablar asosida tashkil etish, bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish vazifasi belgilab olingan.

Ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazishga tayyorgarlik 2022-yildayoq boshlab yuborilgan bo'lib, universitet



BUNDAY YOSHLAR XALQARO E'TIROF ETILGAN OLIYGOHLARDA TARBIVIALANADI



jamoasiga juda katta mas'uliyat yukladi. O'tgan davr mobaynida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari malaka talablari, o'quv reja va dasturlari ham tuzilish, ham mazmun jihatidan qayta ko'rib chiqilib, oliy pedagogik ta'limdagi ishlovlardir, yetakchi xalqaro oliygo'hlarni tajribalari, kadr buyurtmachilari talablari asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Universitetda sifatli ta'lim muhitini yaratish va uni nazorat qilishda shaffof usullarni joriy etish, ingliz tilidagi ta'lim ulushini oshirish, talabalarning mustaqil ta'lim olishini rag'batlantirish borasida tizimli ishlar qilinadi.

Xalqaro akkreditatsiya agentligi sertifikatini olish universitet ta'lim sifatini darajasining xalqaro miqyosda e'tirof etilishidir. Universitet ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilanib, nufuzli xalqaro akkreditatsiya agentliklari bilan muzokaralar olib borildi.

Germaniyaning ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha agentligi – ASIIN bilan hamkorlik qilishga kelishildi. Dastlab universitetning kimyo va biologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (kimyo va biologiya) magistratura mutaxassisliklari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishi rejalashtirildi.

ASIIN tashkiloti 1999-yildan beri muhandislik, tabiiy fanlar, matematika, shuningdek, tibbiyot va iqtisodiyot dasturlarini akkreditatsiya qilish bo'yicha yetarli tajriba orttirib, bugungi kunda eng yetakchi akkreditatsiya agentliklaridan biriga aylangan.

Dunyoning ko'plab yetakchi universitetlari va biznes hamjamiyatlari oliy ta'lim va kasbiy amaliyotning xalqaro miqyosda tan olingan sifat standartlarini ishlab chiqish uchun ASIIN

bilan hamkorlik qiladi. Tashkilot 200 nafardan ortiq fan va kasbiy amaliyot mutaxassisining professional tajribasiga tayinib, xalqaro miqyosda akademik va professional harakatchanlikni, yuqori ta'lim standartlarini ta'minlashga katta hissa qo'shib kelmoqda.

ASIIN dunyoning 23 ta mamlakati qatori O'zbekistonda ham mahalliy hamkor agentliklar bilan aloqada ta'lim dasturlarini xalqaro miqyosdagi sifat ko'rsatkichlari asosida takomillashtirish jarayonlarini amalga oshirmoqda.

Universitetning kimyo va biologiya yo'nalishlari bo'yicha ta'lim dasturlari tashkilot tomonidan Rainer Arnold rahbarligida xalqaro ekspertlar Karmen Gening, Vlada Urlicher, Tomas Steinbrecher hamda mahalliy ekspertlar ishtirokida 2024-yilning 12-16-avgust kunlari tashqi baholashdan o'tkazildi. Tashkilotning 2024-yil 6-dekabr kuni bo'lib o'tgan navbatdagi yig'ilishida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 4 ta ta'lim dasturi – kimyo va biologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (kimyo va biologiya) magistratura mutaxassisliklari xalqaro standartlar talablariga javob berishi e'tirof etildi, xalqaro akkreditatsiya sertifikatini taqdim etish qarori qabul qilindi.

Taqdim qilingan hisobotda universitetda ta'lim jarayoni ilmiy faoliyat bilan uy'ulashgani, ta'lim oluvchilar bilim taqdiqot ishlarini tashkil etishda moddiy-texnik baza va laboratoriya imkoniyatlari bilan yetarlicha qamrab olingani, talabalar ta'lim olishi uchun qulay sharoit yaratilgani, ularga zamonaviy o'quv laboratoriyalarida amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyati yaratilgani, sohaning yetuk mutaxassislari o'quv jarayoniga jalb etilgani, talabalar fan resurslari va axborot-resurs imkoniyatlari bilan ta'laqonli ta'minlangani alohida qayd qilingan. Qolgan barcha ta'lim yo'nalishlarini ham bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha tizimli ishlar rejasini belgilangan.

Xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimi

Universitet transformatsiyasi bo'yicha xalqaro tan olingan standartlar asosida strategik rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash, xalqaro mezonlar asosida ta'lim sifatini ta'minlashga erishish, o'quv jarayonini tashkil etish, boshqaruv va pedagog kadrlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham o'z natijalarini boshlamoqda.

Boshqaruv tizimini ISO:21001 (Educational organizations – Management systems for educational organizations) talablari asosida tashkil etish maqsadida Toshkent shahridagi "Smart management international training company" MCHJni jalb qilgan holda faoliyat sohalari xalqaro standartlar asosida ichki auditdan o'tkazishni amalga oshirish uchun 56 rahbar xodim, yetakchi professor-o'qituvchi va texnik xodimlar uchun ISO 21001:2018 xalqaro standarti to'g'risidagi o'quv kurslari tashkil etildi. Ular o'quv kurslari yakunida tegishli sertifikatlariga ega bo'ldi.

ISO 21001:2018 xalqaro standarti ta'lim mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etuvchilar,

Oliy ta'lim sohasidagi global tahlil agentligining 2024-yil 6-noyabrda Osiyoning eng yaxshi universitetlari reytingi o'n oltinchi yillik nashri – QS Asia University Rankings-2025 e'lonida TOP 1000 talikdagi o'rinni mustahkamlab, 678-o'rinda joylashdi.

ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar (mehnat bozori, hukumat, jamiyat va boshqalar) ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan ta'lim muassasalari uchun umumiy boshqaruv vositasini taqdim etadi. Mazkur standart ta'lim muassasasi, ta'lim oluvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi aniq o'zaro munosabatlarga qaratilgan. Ya'ni ta'lim muassasalariga o'z missiyasi va qarashlari bilan samarali moslashishga yordam berib, natijada ta'lim oluvchilar va (jarayon hamda vaqtni yaxshilash orqali) o'qituvchilar, ot-onalar, shuningdek, boshqa manfaatdor tomonlarga foyda keltiradigan shaxsiy-lashtirilgan ta'lim tajribasiga erishishni ko'zda tutadi.

O'zbekistonda shu kunga qadar faqatgina 4 ta oliygo'hlarni Toshkent davlat stomatologiya instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Toshkent kimyo xalqaro universiteti hamda Toshkent shahridagi INHA universiteti ISO 9001:2015 xalqaro standarti sertifikatiga egalik qilgan.


Universitetda boshqaruv tizimini ISO:21001 talablari asosida tashkil etish maqsadida Slovakiyaning "CERT INTERNATIONAL" xalqaro sertifikatlashtirish tashkiloti bilan hamkorlik qilinib, universitet faoliyati tashqi auditdan o'tkazildi va tashkilot tomonidan universitetga ISO 21001:2018, ISO 9001:2015 xalqaro standart sertifikatlari taqdim etildi. Ushbu hujjat universitetda boshqaruv faoliyatini xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirishga, ta'lim sifatini oshirish va xorijiy iste'molchilarni jalb etishga katta xizmat qiladi.

Muxtasar aytganda, universitetni "Universitet 4.0" konsepsiyasi asosida transformatsiya qilish, xalqaro reytinglardagi o'z o'rnini yuksaltirish, xalqaro standartlar, normalar va shakllar asosida ta'lim sifatini ta'minlash, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish va jahon standartlari talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash borasidagi sa'y-harakatlarimiz respublikamizda oliy pedagogik ta'limni yangi bosqichga olib chiqishga joriy ta'sirini namoyon etmoqda.

Zero, ta'lim tizimini xalqaro talablar asosida isloh qilish, shu asosda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, barcha ta'lim bosqichlarini modernizatsiya qilish, ilg'or texnologiyalarni amaliyotga joriy etish kabi ustuvor vazifalarni amalga qo'llash ta'lim tizimida o'tkazilgan ishlar ham o'z natijalarini boshlamoqda.

Yangicha yondashuvlar

Angor tumani O'zbekiston mahallasida yashovchi Sardorbek Zoirovning chet elda ta'lim olish ishtiyoqi yuqori. Shu orzu ortidan bir necha oy ilgari xorijda ham o'qish, ham ishlash istagi bilan tuman markazidagi monomarkazda o'chilgan nemis tili kursiga qatnay boshladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



TIL BILGANLAR DUNYOGA CHIQAADI

Barcha darslarni a'lo darajada o'zlashtirgan yigit qisqa muddatda nemis tilini bilish darajasini aniqlovchi testda ishtirok etdi va V1 darajaga oldi. Belgilangan subhatlardan ijobiy natija bilan o'tgan Sardorbek Zoirov Germaniyaga jo'nab ketish arafasida. U qishloq xo'jaligi bo'yicha muayyan tajribaga ega bo'lgani bois, shu sohani tanladi.

Menimcha, xorijda tahsil olish uchun yo'lga o'tilgan odam bilimlarni yaxshi o'zlashtirib, ishda yetarli ko'nikma orttirib, mamlakatimizga qaytish va o'rganmalarini amaliyotga qo'llash haqida o'ylaydi, deydi Sardorbek. Kim bilan gaplashmay, yaratilgan sharoitlardan foydalanib, kelgusida mamlakatimiz rivojiga hissasini qo'shishni istashini aytadi. Bilishimcha, Germaniya qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashga alohida e'tibor qaratadi. Aholining atigi 2-3 foizi shu sohada ishlayapti. Sohani rivojlantirish va yetarli ozuqa bazasi yaratish uchun mamlakatda shu yo'nalishda ish o'rnini ko'p, mutaxassisga talab yuqori. Yevropa qishloq xo'jaligi o'rgangach, yurtimizga qaytib, o'zimizda qo'llamoqchiman.

Prezidentimizning 2020-yil 11-avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, Angor tumanida "Ishga marhamat" monomarkazi tashkil etilgan. Unda hozir mashg'ulotlar ikki smenada o'tilyapti. 24 yo'nalish bo'yicha 672 tinglovchi o'qimoqda.

Monomarkazimizda 24 ta kasb-hunar va 5 ta xorijiy til, xususan, ingliz, koreys, yapon va nemis tillari o'rgatib kelinmoqda. Nemis tili kursida 400 ga yaqin tinglovchi tahsil olyapti. Ular Germaniyaga o'qish va ishlash niyatida, deydi Angor tumani "Ishga marhamat" monomarkazi direktori o'rinbosari Farhod Berdiyev. Hozir yurtimizda nemis tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu boradagi ishlarni kengaytirish, ishsiz yoshlarga xorijiy tillarni o'rgatish, til biladigan, kasb-hunarli yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash orqali yuqori maoshli ish bilan ta'minlash va kasbiy ta'lim olishga qaratilgan "Germaniyada kasbiy ta'lim" loyihasi ham ishgah tushirilgan. Bu sharoitlar yurtdoshlarimizning xorijda ishlab, yaxshi daromad topishiga xizmat qilmoqda.

Bugun Surxondaryo viloyatidagi o'nlab monomarkaz va kasb-hunar markazlari yoshlarga xorijiy tillar va kasb-hunar sirlarini o'rgatib, malakali, chet tillarni biladigan xodim sifatida tayyorlanmoqda.

Ta'lim muassasalarida xorijiy tillar o'rgatiladigan to'garaklar ochilgan. Ularda o'quvchilar o'zi tanlagan xorijiy tilni o'rganyapti. Ayniqsa, kasb-hunar, xorijiy tillar o'rgatiladigan o'quv markazlarida chora-tadbirlar ko'lami yanada kengaymoqda. Viloyatda bugun 60 dan ortiq o'quv markazi faoliyat yuritmoqda. Ularning Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi bilan hamkorligi til va kasb o'rganishga qiziqqunchi yoshlar uchun keng imkoniyat ehsigini ochmoqda, deydi Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi bosh mutaxassisi Bobur

Mirsaidov. Chet tillarni qunt bilan o'rganagan yoshlar yurtimizdagi korxonalarda ham, xorijda ham ishlab, yaxshi daromad topmoqda.

Sariosiyo tumani viloyat markazidan uzoq hudud bo'lsa-da, aholining kasb-hunar, chet tillarni o'rganishi uchun imkoniyat yetarli. Hozir Sariosiyo kasb-hunarga o'qitish markazida 7 ta kasb-hunar va 2 ta til kurslari ochilgan. "Ayollar haftasi" va "Yoshlar haftasi"da imkoniyati cheklanganlar uchun bepul mashg'ulotlar o'tilyapti.

Bugun chet tillarni o'rganish nafaqat ish topish, balki oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun ham muhim. Zamon talabiga mos chet tili o'qitish markazlari yoshlar uchun bilim olish jarayonini yanada qulay va samarali tashkil qilmoqda. Bu markazlarda yoshlar o'quv dasturlaridan tashqari, mustaqil ravishda bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ham ega, deydi Sariosiyo tumanidagi o'quv markazi rahbari Jahongir Normatov.

Surxondaryo viloyatidagi kasb-hunar texnikumlari huzurida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida xorijiy davlatga ketayotgan shaxslar hamda band bo'lmagan aholi uchun kasb-hunar va til o'qitish markazlari tashkil etilgan. Jumladan, Termiz shahridagi arxitektura va qurilish texnikumidagi markazda qurilish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash bilan birga tinglovchilarga rus, ingliz, nemis va koreys tillari o'rgatib kelinmoqda.

Ota-onalar ham yoshlarga yaratilgan imkoniyatlardan minnatdor. Farzandlari til o'rganishi uchun sharoit hozirlayotir. Zero, til bilgan yoshlar dunyoga yuz tutadi.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Toshkent teleminorasining ochilish marosimi katta tantana bilan o'tkazilgan. Mehmonlar minoraning antiqaligi, bajarilgan ishlar sifati, foyening mozaik panno bilan badiiy bezatilgani, osma shiftlar, liftlarga mahliyo bo'lgan.

YANGI O'ZBEKISTON



QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING!


Iftixor

Dunyoning mashhur teleminorolari qatorida ko'riladigan ushbu inshoot o'z davrida zamonaviy me'morlikning eng ilg'or texnologiyalari asosida bunyod etilgan. 1985-yil 15-yanvarda foydalanishga topshirilgan Toshkent teleminorasi 2025-yilning shu sanasida 40 yoshni qarshilaydi.

TOSHKENT TELEMINORASI:

40 YILLIK TARIX VA GAVHARI

POYTAXTNING ENG BALAND



Murodjon SOBIROV,
"Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" DUK bosh direktori

Toshkent shahri sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan poytaxtlardan biriga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda qurilayotgan zamonaviy binolar, dam olish va savdo markazlari jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi manzillardan qolishmaydi. Shu bois, shahrimiz doim olis-yaqindan kelgan mehmonlar bilan gavjum. Turizm ishqibozlarini nafaqat zamonaviy maskanlar, balki poytaxtdagi madaniy obidalar ham qiziqtiradi. Ayniqsa, sayyohlarning aksari Yunusobod tumanidagi Toshkent teleminorasini ko'rmay qaytmaydi.

Dunyoning mashhur teleminorolari qatorida ko'riladigan ushbu inshoot o'z davrida zamonaviy me'morlikning eng ilg'or texnologiyalari asosida bunyod etilgan. 1985-yil 15-yanvarda foydalanishga topshirilgan Toshkent teleminorasi 2025-yilning shu sanasida 40 yoshni qarshilaydi. Oradan shuncha yil o'tganiga qaramay, inshoot hamon poytaxtimizning sharaf va iftixor timsoli bo'lib, Markaziy Osiyodagi eng baland teleminora sifatida tilga olinadi.

Toshkent shahri manzaralari va go'zalligini to'liq tomosha qilish uchun bu minoradan balandroq joyni topish mahol. Inshoot ichkarisiga tomon dunyoning mashhur teleminoralarini maketlaridan iborat muzey bo'yab o'tib boriladi. 1990-yilda Toshkent

"Koinot" restoranining "moviy" va "alvon" zallari mavjud. Restoranlarning aylanadigan pol platformasi uning o'ziga xosligidir. Stol atrofiga



Aslida, Toshkent teleminorasini qurishdan maqsad yurtimizda birinchilardan bo'lib asos solingan televideniye rivojlantirish edi. Minorasi qurilishi va ishga tushirilishi katta bir tarix sifatida yodga olinadi. 40 yillik yubiley oldidan ana shu tarixga nazar tashlar ekanmiz, mamlakatimiz televideniyesining tamal toshi ayni shu teleminoraga qo'yilganiga guvoh bo'lamiz.

Teledasturlarni uzatuvchi asosiy nuqta

XX asming 50-yillarida O'zbekiston hukumati Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib televideniye markazi qurilishini rejalashtirdi. Shu maqsadda dastlab 1956-yili balandligi 180 metrli teleminora qad rostladi. O'sha yilning 5-noyabrda O'zbekistonda birinchi telemarkaz — Toshkent telemarkazi ishga tushirilib, televideniye dasturlari ushbu minoradan tarqatila boshlandi.

Televideniye, shubhasiz, insoniyat hayotidagi buyuk kashfiyotdir. Ushbu kashfiyot XX asr odamlari turmush tarzini o'zgartirdi, ma'naviy-ma'rifiy hayotida tub burilish yasadi. Turmushning rangsiz, zerikarli manzaralari o'rinni endi odamlarga ma'naviy ozuqa, estetik zavq, rangin kayfiyat beradigan san'at asarlari, ijtimoiy hayot nafasini beruvchi yangiliklar namoyishi egalladi. Uning insonlar hayotidagi o'rni va bajaradigan vazifasi salmog'ini chamalash qiyin. O'zbek xonadonlarida dunyoda birinchi bo'lib ekran ichida harakatlanayotgan olam, tiriklik aks etgan mo'jiza tug'ildi. U xonadonlarga iznsiz kirib, to'ppa-to'g'ri xonaning to'ridan joy oldi. Oila a'zolarini bir dasturxon atrofida jam qildi va kamiga shu xonadonni zabt etgani belgisi sifatida o'z "bayrog'i" — antennani ilib qo'ydi. Shu bilan u zafarli yurishlarini boshladi.

XX asming 60-yillariga kelib, televideniye O'zbekiston xalqi madaniy hayotidan mustahkam o'rin egalladi. O'z navbatida, Toshkent shahri va viloyati hududida yashovchi aholi ehtiyojini qondirish, ya'ni televideniye ko'rsatuvlar sonini ko'paytirish va tog' ortida joylashgan qishloqlarda yashovchi aholini teleko'rsatuvlar bilan ta'minlashda mavjud 180 metrli teleminoraning texnik imkoniyatlari kamil qila boshladi. Shu sababli baland va zamonaviy teleminora qurish davr talabi bo'lib qoldi. Ana shu yerdan biz bilgan Toshkent teleminorasining tarixi boshlandi.

Avvaliga teleminora loyihasi va maketi tasdiqlandi. So'ng yangi teleminora qurilishi uchun Toshkent shahri eng baland nuqtalaridan biri bo'lgan Bo'zsu kanal bo'yidan ko'rkan, manzarali, o'z ichiga orolchani ham qamrab olgan 6 gektar yer maydoni ajratildi. Loyihalashtirish davrida asosiy yo'nalish

hisoblangan televideniye va radioeshittirishdan tashqari yana qator masalalar hal etilishi lozim edi. Teleminoraning eng yuqori qavatlarida xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan, atmosferaning turli qatlamlaridagi ob-havo, osmon jismlari va quyosh radiatsiyasi (nurlanishi) to'g'risidagi muhim ma'lumotlarni berib turadigan va atrof-muhitni kuzatuvchi meteostansiyaning texnik vositalari o'rnatilishiga e'tibor qaratildi. Qolaversa, teleminora sayyohlarni jalb etadigan obidalaridan bo'lishi uchun unda shahar ko'rkinini tomosha qilish maydoni hamda ikki zaldan iborat restoran qurish loyihaga kiritildi.

Shu tariqa loyihalar tayyorlanib, rejalar tuzildi. 1978-yilning aprel oyiga kelib esa qurilish ishlari boshlab yuborildi. Bunday balandlikdagi ilk minorani qurish haqiqiy sinov edi. Poydevor qurilishining o'zi 4 oy davom etib, 11 ming kub metr beton qorishmasi va ming tonna temir armatura ishlatildi. Minorasi poydevoriga asosiy markaz tayanchi va detallar joylashtirilgan uchta tayanch oyoq o'rnatilgan, uning ostida esa temir-beton qorishmasidan iborat kuchli massa joylashtirildi. Asosiy markaziy tayanch balandligi bo'yicha besh qavatli 225 metrga teng ikkita yarusga ega. Har bitta yarus milliy tushdagi naqsh bilan bezatilgan jimjimali panjara bilan o'rangan va bu minoraga o'ziga xos joziba berib

loyihachilar oldiga boshqa shaharlarda foydalanilgan arxitektura uslublari Toshkentda takrorlanmasligi talabi qo'yilgan. Teleminoraga kiraverish (vestibul)ni bezashda ko'pgina milliy uslublar va mahalliy me'morlik materiallari qo'llanildi. Jumladan, G'ozg'on (Nurota) marmari, marmarsimon ohagi, granit toshi va ganchlardan foydalanilgan. O'yamakorlik san'ati bilan tayyorlangan jimjimador panolar, oynalar va yog'ochdan tayyorlangan eshiklar o'rnatildi. Minoradagi yangiliklardan yana biri — Shveysariyadagi "Shindler" kompaniyasining mamlakatimizda avval qo'llanilmagan, 220 metr balandlikkacha ko'tariladigan uchta tezyur lifti o'rnatildi. Binoning 100 metr balandligida tomosha maydonchasi, 105 metr balandlikda "moviy" va 110 metr balandlikda "alvon" zallari restoran qurildi. Teleminoraga 5,20 kilovatt quvvatga ega 5 ta teleuzatgich va 4 ta radioeshittirish dasturini uzatish imkoniyatiga ega bo'lgan 4 kilovattli 2 ta UQT CHM "Dojd-2" radiostansiyasi o'rnatildi.

Qush parvozi balandligidagi mo'jiza

Shunday qilib, minorasi asta-sekin qad rostladi va 1983-yil fevral oyida O'zbekiston



turadi. Umuman, qurilish maydonida chinakamiga ijodiy muhit hukm surardi. IZlanishlar orqali qurilish jarayonida yirik elementli konstruksiyalarni o'rnatishning yangi usullari topilib, ularga patentlik guvohnomalari berilgan va bu usullar ixtiro deb e'tirof etilgan.

Teleminoraning hajm-balandlik kompozitsiyasini shakllantirishda bu masalaning nafaqat estetik, balki iqtisodiy, tibbiy, psixologik va boshqa jihatlari hisobga olindi. Minorasi konstruksiyalarini temirdan tayyorlash usuli qabul qilindi, chunki bu usul seysmik faol hududda amalga oshiriladigan qurilish talarlariga boshqa usullarga qaraganda to'laroq javob berardi. Psixologik nuqtayi nazaridan minorada ishlovchi xodimlar hamda mehmonlarda balandlik va minoraning tebranishi oqibatidagi noqulaylik hislarini yo'qotish masalasi yechimini topish kerak edi. Shuning uchun balandligi 100-120 metr bo'lgan uchta temir ustun tutashgan yerda joylashgan kuzatuv maydonchasi va restoran atrofi maxsus oynalar bilan o'rallib, uning orqasidan ham quyoshdan saqlanish, ham xavfsizlik maqsadida jimjimador temir panjara o'rnatildi.

Asosiy e'tibor inshootning estetik va arxitektura ko'rinishiga qaratildi. Teleminora shaharning yangi g'oyasiga aylanib, nafaqat uning ko'rkiga ko'rki qo'shishi, balki yangi ramzini aks ettirishi lozim edi. Qolaversa,

tarixiy voqeelig edi. Uni qurishdan tortib, xalqimizga topshirishgacha bo'lgan jarayonda fidokorona mehnat qilgan ko'plab insonlar davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Loyiha mualliflarining maqsadi teleminorani aholi doimiy tashrif buyuradigan maskanga aylantirish edi. Ularning bu maqsadi amalga oshdi va Toshkent teleminorasi poytaxtimizning gavhari sifatida doimo sayyohlarni o'ziga chorlab kelmokda.

Parijda Eyfel, Toshkentda teleminora

Sayyohlik tendensiyalari zamonaviylik bilan birga o'zgarib bormoqda. Jahonda sayyohlikning yangi yo'nalishi rivojlanib, yurtimizga kirib kelyapti. Shu bois, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmokda. Iqtisodiy jihatdan yetakchi tarmoqqa aylanayotgan bu sohada imkoniyatlarimiz keng. Mazkur yo'nalishdagi loyihalar ko'lami salmoqli. Shunday sharoitda Toshkent teleminorasi jozibadorligini oshirish, sayyohlar oqimini yanada ko'paytirish oldimizda turgan muhim vazifalardan biri.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi tegishli qarori bilan Toshkent teleminorasi moddiy-madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari (arxitektura obyekti) milliy ro'yxatiga kiritilgan. Shu bois, binoni ta'mirlashda uning arxitektura ko'rinishi saqlanib qolishiga katta e'tibor qaratiladi. Chunki inshoot aynan XX asrni eslatuvchi, o'sha davr muhitini zamonaviylik bilan uyg'un aks ettiradigan maskan hamdir. Mehmonlarning ko'pi ayni shu muhitni ko'rish istagida keladi.

Davlatimiz rahbari "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "Iste'molchilarga televideniye signali uzatish va yer usti televideniye eshittirish, kabel televideniyesi, IP televideniye, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, internet texnologiyalaridan foydalanilgan holda televideniye, televideniye va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirishimiz lozim"ligini ta'kidlagan edi. Toshkent teleminorasi ayni shu vazifani bajarishda asosiy nuqta hisoblanadi. Bugungi kunda teleminorada zamonaviy, yuqori sifatlilik, dunyodagi eng ilg'or raqamli teleuzatgichlar komplekslari o'rnatilgan va faoliyat ko'rsatib kelmokda.

Shu bilan birga, inshootning turizm salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan faol ishlar izchil davom etayotir. Bunda, avvalo, mehmonlar, xorijlik sayyohlarga qator qulayliklar yaratilyapti. Jumladan, ilgari teleminoraning tomosha maydonchasi va "Koinot" restoraniga tashrif buyuruvchilarga o'zlarini bilan mobil qurilmalarni olib kirishga ruxsat etilmagan. Bugungi kunda ushbu tartib bekor qilingan. Shuningdek, Toshkent teleminorasining tomosha maydonchasi va restoraniga kirish uchun tashrif buyuruvchilardan avvalgidek shaxsni tasdiqlovchi hujjat talab etilmayapti. Ushbu talab 2019-yil 16-noyabrdan bekor qilindi.

Teleminoraga kirishda QR-kodli tizim qurilmalari ishga tushirilib, chiptalarni xarid qilish va boshqa amaliyotlar to'liq raqamlashtirildi. Inshootga kirish qismida ma'lumotlar doskasi, yarim hajmli elementdan teleminora surati, dunyoning mashhur shaharlari vaqtlarini ko'rsatuvchi soatlar, ma'lumotlar stikeri hamda teleminoraga o'tish yo'lida ko'rsatkichli va yo'naltiruvchi stikerlar qo'yildi. Toshkent teleminorasiga o'rnatilgan illyuminatsion yoritish chiroqlari esa poytaxtimizning tungi ko'rinishiga yanada ko'rk qo'shmoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

teleminorasi Jahon buyuk minoralari jamiyatiga a'zo bo'lgan. Ayni paytda milliy obidamiz dunyo teleminoralarida asosda balandligi bo'yicha 12-o'rinni egallab turibdi.

Galereya yo'lga bo'yab teleminoraning lift foyesiga o'tiladi. Bu yo'lak ham o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, yurtimizning diqqatga sazovor manzillari suratlar bilan bezatilgan. Lift foye qismida esa turli mavzulardagi san'at asarlarini tomosha qilish mumkin. Qator joylashtirilgan kompozitsiyalarning har biri o'z nomiga ega. Masalan, bayram kompozitsiyasida milliy musiqa asoblarimiz, teleminora tasvirlari tushirilgan. Minoraning asosiy kuzatuv maydonchasi 100 metr balandlikda joylashgan. Undan ham teparoq, 110 metr balandlikda esa

o'tirgan mehmonlar ham taomlanib, ham shahar manzarasini 360 daraja aylangan holda tomosha qiladi. Pol harakatlangan nuqtasiga 45 daqiqada aylanib kelguniga qadar shaharning go'zal manzarasidan bir olam zavq olish mumkin.

Toshkent teleminorasi poytaxtning ramziy obidalaridan sanaladi. Uni shaharning istalgan nuqtasidan ko'rish mumkin. O'ziga xos go'zalligi va savlati har qanday odamning havasini keltiradi. Ammo bu minora faqatgina tomosha maydoni yoki sayyohlik obyekti emas. Uning yanada muhimroq vazifasi bor — Toshkent teleminorasi bunyod etilganidan buyon hozirga qadar yurtidoshlarimizga televideniye va radiodasturlarni uzluksiz hamda sifatli uzatib berishga xizmat qilib kelmokda.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasini

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4493.
39932 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo'minova
Musahhib: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy